



## SIRDARYO VILOYATI SHIRIN SHAHAR HOKIMI Q A R O R I

2021 - yil 29 - iyun

6-9-131-Q/21

Shirin shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-maydagi “2021-yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 324-sonli qarori va Sirdaryo viloyati hokimining 2021-yil 11-iyundagi 4-9-0-Q/21-sonli qarori ijrosini ta‘minlash hamda tarmoqlararo sanoat yarmarkalari doirasida viloyatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan respublikadagi yirik sanoat tashkilotlari o‘rtasida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan **qaror qilaman** :

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2021-yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 26-maydagi 324-sonli qarori hamda Sirdaryo viloyati hokimining 2021-yil 11-iyundagi 4-9-0-Q/21-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun abul qilinsin.

2. Ijrosini ta‘minlashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) yarmarka o‘tkaziladigan hududlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda ixtisoslashuvi asosida yirik sanoat tashkilotlari, boshqa hududlardan taklif etiladigan iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlari, shuningdek, yirik sanoat tashkilotlari uchun import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish istagini bildirgan respublikadagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etishi;

- mahsulot xarid qilish bo‘yicha shartnomalarni shakllantirish bilan birga yirik sanoat tashkilotlari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan yarmarka doirasida texnik jihatdan hamkorlik qilish memorandumini tuzishi, mahsulotni o‘zlashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni qabul qilishi, hamkorlariga texnik shartlarni berishi, texnik hujjatlar va chizmalarni birgalikda ishlab chiqishi, shuningdek, mahsulot namunalarini ishlab chiqarishi, ularni sinovdan o‘tkazishi, mahsulotlar ishlab chiqarishni boshlashi va ularni sotib olish bo‘yicha bitimlar tuzishi yuzasidan aniq chora-tadbirlar va ularni bajarish muddatlari belgilab olinishi;

- hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini o‘tkazish xarajatlari ushbu yarmarkalarni tashkil etuvchi hamda ularda ishtirok etuvchi tomonlarning o‘z mablag‘lari hisobidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi inobatga olinganligi;

b) Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar hamda ular muassisligidagi 50 foiz va undan ortiq ulushga ega bo‘lgan boshqa tashkilotlar (keyingi o‘rinlarda – davlat ulushi bo‘lgan korxonalar) bilan birgalikda Elektron kooperatsiya portalida joriy etilgan tizim orqali;

- mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan o'zlashtiriladigan mahsulotlar texnik hamkorlik qilish memorandumlarida keltirilgan sifat va narx ko'rsatkichlari asosida tegishli shartnomalar tuzilishiga;

- hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalari doirasida tuzilgan texnik hamkorlik qilish memorandumlari asosida import qilinayotgan mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilishini o'zlashtirish iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib, ikki yil va undan ortiq muddatga shartnomalar tuzilishiga ko'maklashishi;

d) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 305-moddasiga asosan ushbu kodeks 294-moddasi birinchi qismining birinchi bandida ko'rsatilgan yuridik shaxslarning soliq bazasini aniqlashda ushbu shaxslarning jami daromadidan daromad olish bilan bog'liq barcha asoslangan xarajatlari chegirib tashlanishi;

- mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida o'tkazilgan tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida imzolangan texnik hamkorlik to'g'risidagi memorandumlarga muvofiq sinov uchun taqdim etiladigan mahsulotlarning tajriba namunalari (to'plami), agar ular qayta ko'rib chiqish (qayta ishlash) uchun qaytarilsa, unda qayta ko'rib chiqish xarajatlari foyda solig'ini hisoblashda asoslangan xarajatlar sifatida inobatga olinishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

### 3. Quyidagilar:

- 2021-yilda Sirdaryo viloyatida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini o'tkazish reja-jadvali 1-ilogava;

- 2021-yilda Sirdaryo viloyatida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini tashkil etish va o'tkazish hamda Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilogava;

- 2021-yilda Sirdaryo viloyatida hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini tashkil etish va o'tkazish hamda Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etish chora-tadbirlari 3-ilogava muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

4. Ishchi guruhning har bir a'zosiga hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasiga sifatli tayyorgarlik ko'rish va o'z muddatida o'tkazilishi, Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasida faol ishtirok etishi yuzasidan shaxsiy mas'uliyat yuklanganligi inobatga olinsin.

5. Ishchi guruh a'zolari hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasini tashkil etish va o'tkazishda hamda Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasida ishtirok etishda:

- mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli barqaror kooperatsiya aloqalari o'rnatilishi mahalliy xomashyo va sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ishtirokchilari va loyihalari sonini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini sanoat kooperatsiyasiga keng jalb etish;

- hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida 2021-2022-yillarda mahsulot xarid qilish bo'yicha shartnomalar tuzilishi, shuningdek, ilgari import qilingan mahsulotlarni o'zlashtirishda texnik hamkorlik qilish memorandumlari shakllantirilishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan butlovchi qismlar va mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha shartnomalar tuzilishi;

- yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish loyihalarini joylashtirish masalalarida, shu jumladan, kichik sanoat zonalari va erkin iqtisodiy zonalar hududida (ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha) yer maydonlari ajratilishiga ko'maklashishi nazarda tutilsin.

6. Shahar iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi

(I. Eshonqulov), Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Tadbirkorlikka ko'maklashish markazi Shirin shahar bo'limi, Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi (J. O'rolov), shahar statistika bo'limi bilan birgalikda:

- hududiy yirik sanoat tashkilotlari tomonidan foydalaniladigan xomashyolar, ehtiyot qismlar, butlovchi

buyumlar, asbob-uskuna va tayyor mahsulotlar ro'yxati to'g'risidagi elektron ma'lumotlarni, birinchi navbatda, ishlab chiqarish istagini bildirgan salohiyatli kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalari o'tkazilishidan kamida bir hafta oldin yetkazilishini ta'minlash;

- hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalari doirasida texnik hamkorlik qilish memorandumlarini, shu jumladan, mahalliyashtiriladigan mahsulotlar bo'yicha muhandislik-texnik hujjatlarni ishlab chiqishda ko'maklashish, shuningdek, maqsadli sifat ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan amaliy choralarni ko'rsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o'rinbosari M. Kuvandikov, shahar hokimining o'rinbosari I. Maxmudov zimmasiga yuklansin.

**Шаҳар ҳоқими**



**S.Sultonov**